

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.FIL.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

SADENOVA GULBANU PERDEBAEVNA

Sh.SEYTOV NASRINING LINGVOPOETIKASI

10.00.03 – Qoraqalpoq tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Sadenova Gulbanu Perdebaevna Sh.Seytov nasrining lingvopoetikasi.....	3
Саденова Гулбану Пердебаевна Лингвопоэтика прозы Ш.Сейтова.....	21
Sadenova Gulbanu Perdebaevna Linguopoetics of Sh.Seytov’s prose.....	41
E’lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	45

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

SADENOVA GULBANU PERDEBAEVNA

Sh.SEYTOV NASRINING LINGVOPOETIKASI

10.00.03 – Qoraqalpoq tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2023.2.PhD/Fil3391 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdinazimov Shamsheiddin Najimovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Pirniyazova Alima Kudiyarovna
filologiya fanlari doktori, professor

Kazimbetova Ziyuar Maxsetabavna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «12» 04 soat 16.00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25, faks: (99861) 223-59-25, e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel: (99861) 223-59-25).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «19» 03 da tarqatildi.
(2025-yil «19» 03 daqi 10 raqamli restr bayonnomasi).



Q.K.Orazimullov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

J.O.Tanriborjoni

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent

A.K.Pirniyazova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshig'i
ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida oʻtgan asrning oxirlaridan boshlab til tadqiqiga yondashuvlar tubdan oʻzgarib, til tizimini kontekst, nutq vaziyati, til muhiti, madaniyat, etnos, ijtimoiy vaziyat kabi tashqi omillar bilan bogʻliq holda oʻrganishga alohida eʼtibor qaratilib kelinmoqda. Soʻnggi yillarda bu yoʻnalishda olib borilgan tadqiqotlar natijasida tilda inson omili muammosini oʻrganuvchi antropotsentrik tilshunoslikning qator yoʻnalishlari shakllanib, mustaqil rivojlana boshladi. Ayniqsa, fanlar va fan sohalari integratsiyasi kuchayib borishi natijasida lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, lingvopoetika, etnolingvistika, sotsiolingvistika kabi qator yoʻnalishlar yuzaga kelib, tilshunoslikning tahlil obyektlari yanada kengayib, tadqiq etilishi lozim boʻlgan dolzarb muammolarning safi ortib bormoqda.

Dunyo tilshunosligida mana shunday fan sohalari integratsiyasi natijasida, xususan, adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlarining kesishmasida yuzaga kelgan sohalardan biri lingvopoetika boʻlib, til birliklarining yozuvchi yoki shoir kommunikativ maqsadi bilan bogʻliq holda badiiy-estetik vazifa uchun xizmat qilishdagi oʻziga xos jihatlarni aniqlash zamonaviy tilshunoslikning muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Bu borada bugunga qadar qator tadqiqotlar olib borilgan boʻlsa da, qoraqalpoq tilshunosligida hali yechimini topmagan muammolar koʻzga tashlanadi. Jumladan, taniqli qoraqalpoq yozuvchisi Sh.Seytov asarlarida taʼsirchanlikni yuzaga keltirgan til birliklarini aniqlash, estetik vazifa ortida turgan tilga xos qonuniyatlarni ochib berish va shu orqali muallifning tildan foydalanish mahoratini yoritish, uning poetik oʻziga xosligini ilmiy-nazariy jihatdan oʻrganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillik yillaridan soʻng xalqimizning madaniy merosini rivojlantirish, milliy oʻziga xoslik va yuksak maʼnaviyatning ming asrlik sarchashmalarini qayta tiklash, jismonan sogʻlom, har tomonlama kamolotga erishgan va maʼnan yetuk avlodlar jamiyatini barpo etish uchun zarur sharoitlar yaratishga katta eʼtibor qaratilib kelinmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng oʻrganish va targʻib qilish maqsadida yoshlar oʻrtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish toʻgʻrisida»gi Qarori¹ buyuk olim va mutafakkirlarimizning bebaho merosi, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur oʻrganish va targʻib qilish, yoshlarimizni oʻzlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular orasida kitobxonlik madaniyatini keng targʻib qilish masalalari adabiyotshunos va tilshunos olimlarning bosh vazifasi sifatida belgilandi. Shu nuqtai nazardan, qoraqalpoq xalqining taniqli yozuvchisi Shaudirbay Seytovning nasriy asarlari tilini lingvopoetik jihatdan jahon tilshunosligi ilmiy-nazariy konsepsiyalari asosida tadqiq qilish uning yozuvchilik mahoratini oʻrganishning istiqbolli yoʻnalishlaridan biri sanaladi. Ushbu holat,

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Буюк алломалар, адиб ва мутафаккирларимиз иждодий меросини кенг ўрганиш ва тарғиб қилиш мақсадида ёшлар ўртасида китобхонлик танловларини ташкил этиш тўғрисида»ги Қарори // Халқ сўзи. – Тошкент, 2018-йил, 15-май.

tadqiqot mavzusining bugungi kun talablariga muvofiqligi va dolzarbligini asoslaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda joriy doktorlik dissertatsiyasi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-marifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida V.V.Vinogradov, V.Ya.Zadornova, A.A.Lipgart kabi olimlarning lingvopoetikaga doir tadqiqot ishlari katta ahamiyatga ega². Ular o‘z tadqiqotlarida badiiy adabiyot tilini o‘rganishning dolzarbligini, uni adabiy tilning shakllanib borishida va poetik obraz yaratishda juda muhim ekanligini ta’kidlashgan.

So‘nggi yillarda o‘zbek olimlarining badiiy asar tilining lingvopoetik xususiyatlariga doir tadqiqotlari diqqatga sazovordir³. Qoraqalpoq tilshunosligida ham bu masalaga alohida e’tibor qaratilmoqda⁴.

² Виноградов В.В. Итоги обсуждения вопросов стилистики. – М., 1986. – С.117–189.; Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных как предмет лингвопоэтического исследования: Дисс. ... докт. филол. наук. – М., 1992; Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика: Дисс. ... докт. филол. наук. – М., 1996. – 656 с.; Shu muallif. Основы лингвопоэтики. – М.: Диалог-МГУ, 1999. – 165 с.

³ Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадий услуби: Филол. фан. докт... дис. автореф. – Тошкент, 1993; Рахимов А. Ўзбек романи поэтикаси: Филол. фан. докт... дис. автореф. – Тошкент, 1993; Тўраев Д. Ҳозирги ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси (60–80-йиллар): Филол. фан. докт... дис. автореф. – Тошкент, 1994; Солижонов Й. XX асрнинг 80–90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси: Филол. фан. докт... дис. автореф. – Тошкент, 2002; Саримсоков Б.И. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004; Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент, 2007; Shu muallif. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008; Shu muallif. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фан. докт... дис. автореф. – Тошкент, 2000; Нормуродов Р.У. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: Филол. фан. докт... дис. автореф. – Тошкент, 2000; Шодиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз... дис. автореф. – Тошкент, 2007; Тошхужаева Ш.Ф. Эркин Ўзбек асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. фалс. ... д-ри автореф. – Фаргона, 2017; Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўгли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. доктори дис. автореф. – Тошкент, 2017; Қурбанова М.О. Мустақиллик даври дostonлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. фалс. ... д-ри автореф. – Фаргона, 2019; Шодмонова Д.Э. Абдулла Орипов шеърининг лингвопоэтик хусусиятлари (метафорик ходисалар мисолида). Филол. фан. фалс. ... д-ри автореф. – Қарши, 2019; Умирова С.М. Ўзбек шеърининг

Qoraqalpoq tilshunosligida badiiy asar tilini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda ikki yo'nalish kuzatiladi. Tadqiqotlarning birinchi yo'nalishida qoraqalpoq tilining tarixini o'rganish maqsadida badiiy matnlardan faktik material sifatida foydalanish, ikkinchi yo'nalishida ma'lum davrda yashagan shoir va yozuvchilarning tili va uslubini tadqiq etish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi⁵.

Adabiyotshunoslikda qoraqalpoq yozuvchisi Sh.Seytov ijodi, u yaratgan asarlar mazmuni haqida qimmatli fikrlar bildirilgan va ilmiy jihatdan tadqiq qilingan, bir qancha monografiyalar, adabiy portretlar, ilmiy maqolalar yozilgan⁶.

Sh.Seytov asarlaridagi fonostilistik vositalar B.Yusupova tomonidan alohida tadqiq qilingan⁷. Lekin, hozirgi qoraqalpoq tilshunosligida yozuvchi asarlari lingvopoetik ilmiy tadqiqot obyekti sifatida maxsus o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida olib borilayotgan "Hozirgi qoraqalpoq filologiyasining dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Sh.Seytovning individual ijodiy uslubiga xos xususiyatlarni belgilash va uning nasriy asarlaridagi til vositalarining uslubiy imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

nasriy matnni lingvopoetik aspektda tadqiq etish muammosining nazariy asoslari haqida ilmiy tushuncha berish va ularni sharhlash;

yo'zuvchi asarlarida til sathi birliklarining estetik ta'sirchanlikni ta'minlashdagi rolini ochib berish;

лингвистик vositalar va poetik individuallik (Usmon Azim she'riyati misolida). Filol. fan. fal. ... d-ri avtoref. – Samarqand, 2019; Muqimova Z.P. Utkir Xoshimov asarlari tilining lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlari. Filol. fan. fal. ... d-ri avtoref. – Toshkent, 2020; Erkinova N. Eshqobil Shukur she'rlarining lingvopoetik tadqiqi. Filol. fan. fals...d-ri avtoref. – Toshkent, 2024.

⁴ Абдиназимов Ш. Лингвopoэтика. – Нөкис: Miraziz Nukus, 2019. – 164 б.; Абдалиева Г. Лингвopoэтические особенности языка произведений Т.Каипбергенова. – Ташкент: Aloqachi, 2019; Ержанова Д. Ибрагим Юсупов поэмаларининг лингвopoэтик тахлили. Filol.fan. falsafa...d-ri avtoref. – Нукус, 2022; Казимбетова З. Ж.Избасқанов асарларининг лингвopoэтик тахлили. Filol. fan. fal. ...d-ri avtoref. – Нукус, 2022; Nasirova A. Qoraqalpoq xalq aytishuvlarining lingvopoetik tahlili. – Nukus, 2024; Vuxarbaeva J. T.Matmuratov asarlarining lingvopoetik tahlili. Filol. fan. fals...d-ri avtoref. – Nukus, 2024.

⁵ Сайтов Д. Язык каракалпакских поэтов XVIII-XIX вв. (Жиен жырау, Кунходжи, Бердах и Ажинияза): Автoref. дис... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1971. – 28 с.; Абдиназимов Ш. Язык произведений Бердах: Автoref. дис... д-ра филол. наук. – Нукус, 2001. – 47 с.; Алланазаров Е. Қорақалпоқ тилида метафораларнинг стилистик қўлланилиши (Т.Жумамуратовнинг поэтик асарлари мисолида): Филол. fan. номз... дис. avtoref. – Нукус, 2002. – 22 б.; Қарлибаева Г. Ажиниёз асарлари тилининг фонетик-морфологик тавсифи: Филол. fan. номз... дис. avtoref. – Нукус, 2002. – 24 б.; Shu muallif. Ажиниёз асарлари тилининг семантик-стилистик хусусиятлари: Филол. fan... d-ри (DSc) дис. avtoref. – Нукус, 2017. – 77 б.; Убайдуллаев Б. XIX аср қорақалпоқ мумтоз шоирлари асарлари тилида олмошларнинг лексик-грамматик хусусиятлари: Филол. fan. номз... дис. avtoref. – Нукус, 2006. – 21 б.; Диланов Б. С.Мажитовнинг ижоди ва қорақалпоқ адабий тили: Филол. fan. номз... дис. avtoref. – Нукус, 2012. – 23 б.

⁶ Нуржанов П. Ҳозирги қарақалпоқ романи (сюжет ҳам конфликт поэтикаси). –Нөкис: «Билим», 2009; Досымбетова А. Шаўдырбай Сейитов лирикасында көркем форма (дәстүрий хәм жаңа формалар синтези, сүүретлеў усыллары, еркин косықлардың формалық өзгешеликери). Филол. илим.канд. дәреже. альў дис. –Нөкис, 2008; Бекбергенова З. Қарақалпоқ романларында көркем сөз поэтикасы (1980–2010-жыллар). Монография. –Нөкис, 2016; Қаниязова Ж. Ш.Сейитов романларида характер яратиш махорати («Халқабад» роман-тетрологияси мисолида). Филол. fan. falsafa доктори... дис. avtoref. – Нукус, 2017. – 49 б.

⁷ Yusupova B. Fonostilistika. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2021. – 326 b.

yozuvchining badiiy til vositalaridan foydalanishdagi mahoratini ochib berish va shu orqali uning badiiy tafakkuri, dunyoni qay tarzda obrazli idrok etishini aniqlash;

yozuvchi asarlarining individual paremiologiyasi, individual mualliflik frazeologizmlar va naql-maqollarning badiiy matnning ta'sirchanligi, badiiyligi va obrazligini ta'minlashdagi ahamiyatini ko'rsatish.

Tadqiqotning obyekti sifatida asosan Sh.Seytovning "Xalqobod" roman-tetrologiyasi va "Chiroqchilar" romani, shuningdek "Taqdir so'qmoqlari", "Xavfli burilish", "Qochqin", "Turnalar uchib ketdi" roman va qissalari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini Sh.Seytov asarlaridagi muayyan lingvopoetik maqsad bilan qo'llanilgan til vositalaridan foydalanishdagi individual xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada tavsiflash, zidlash, lingvopoetik, kontekstual-matniy, badiiy-estetik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sh.Seytov asarlaridagi lingvopoetik jihatdan ahamiyatli bo'lgan til vositalari, asosan individual mualliflik metaforalar, mualliflik o'xshatishlar, metonimiya va sifatlashlar aniqlangan;

muallif badiiy asarlarida matn ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qilgan frazeologizm, naql va maqollar, sinonimlar, antonimlar, varvarizm va vulgarizmlarning yozuvchi g'oyasini ifodalashdagi va xarakter yaratishdagi o'rni aniqlangan;

Sh.Seytovning "Ta'qdir so'qmoqlari", "Qochqin", "Turnalar uchib ketdi" asarlaridagi allitteratsiya, ikkilantirilgan, takrorlangan, so'zdagi o'rni almashtirilgan unli va undosh tovushlar asar poetik nutqiga she'riyatga xos ohangdorlik, jozibadorlik sifatlarini olib kirganligi asoslangan.

Sh.Seytov asarlarida badiiy takror (fonetik, leksik, morfologik va sintaktik) va gradatsiya (fonetik gradatsiya va leksik gradatsiya) shakllari, izohlovchi so'z xizmatidagi laqablarning qahramon ruhiy holatini va xarakterini ochib ko'rsatish va o'quvchiga estetik zavq berishdagi o'rni aniqlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalaridan oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarida "Badiiy matnning lingvistik tahlili", "Badiiy matn stilistikasi", "Badiiy matnning lingvopoetik tahlili", "Lingvopoetika" fanlari bo'yicha maxsus kurs va seminarlarni tashkil etishda, ushbu fanlar bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishda amaliy jihatdan foydalanish mumkinligi asoslangan;

badiiy matnda ijodkor shaxs assotsiativ tafakkuri, lisoniy qobiliyatning muhim o'rin tutishi Sh.Seytov asarlarining lingvopoetik tahlili orqali ochib berilgan;

badiiy matnni o'rganishda lingvopoetik tahlil metodining imkoniyatlari amaliy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida foydalanilgan nazariy fikrlarning asosliligi, ilmiy adabiyotlar bilan davriy nashr manbalaridan havolalar olinganligi, ilmiy tahlillar va olingan natijalarning komponentli tahlil, bayonlash va taqqoslash usullari bilan asoslanganligi, nazariy xulosa va tavsiyalarning

amaliyotda keng qo'llanilishi, olingan natijalarning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nazariy xulosalarning qoraqalpoq lingvopoetikasi sohasida erishilgan yutuqlarni boyitishi, mukammallashtirishi, shuningdek, badiiy matnda estetiklikni hosil qilishda muallifning individual yondashuviga oid yangi ilmiy xulosalarni taqdim etishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishning natija va xulosalaridan nasriy matnlarda til vositalarining lingvopoetik xususiyatlarini o'rganishda, "Nutq madaniyati", "Badiiy matnning lingvistik tahlili", "Lingvopoetika" bo'yicha maxsus kurslarni o'qitishda, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ilmiy maqolalar va ma'ruzalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sh.Seytovning nasriy asarlari tilini lingvopoetik tadqiq qilish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Sh.Seytovning individual xususiyatini ko'rsatishda uning so'z tanlash mahorati, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishdagi o'ziga xos uslubi, badiiy-estetik ahamiyati bo'yicha olingan ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq ijtimoiy fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F-1-005-son "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunoslik tarixini tadqiq qilish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq ijtimoiy fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2025-yil 13-yanvardagi 14/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu tadqiqot xulosalari nasriy asarlar tilini tahlil qilish usullarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyida Sh.Seytov hayoti va ijodi, adabiy merosi bo'yicha ko'rgazmalar tashkil etishda, adabiy-badiiy ekskursiya darslarini o'tkazishda va ilmiy-nazariy anjumanlarda ma'ruza shaklida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2024-yil 25-dekabrda 8-01/2709-son ma'lumotnomasi). Natijada, yozuvchi Sh.Seytov asarlaridagi badiiy obrazlarning barkamol shaxs tarbiyasidagi o'rni va ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, yoshlarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash ham da milliy o'zlikni anglash va tafakkurni yuksaltirishga salmoqli hissa qo'shish imkonini bergan;

qoraqalpoq prozasida so'z va uning badiiy-estetik vazifalari, yozuvchining badiiy tasvir vositalaridan, qoraqalpoq tilining so'zlik lug'atining boy imkoniyatlaridan foydalanishdagi mahorati bo'yicha olingan natijalardan Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatida, ayniqsa, yosh ijodkorlarning mahoratini oshirishda, har xil seminar-treninglar, mahorat darslarini tashkillashtirishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 13-yanvardagi 3-son ma'lumotnomasi). Natijada, yozuvchining qahramon obrazini yaratishdagi adabiy-badiiy mahoratining ochilishiga asos bo'lgan;

yo'zuvchi tomonidan o'ziga xos poetik ijodiy usulda qo'llangan til vositalarining badiiy matnning estetik qiymatini oshirishdagi o'rni, fikrni obrazli, ta'sirchan, ifodali, aniq va to'g'ri yetkazib berishdagi ahamiyati bilan bog'liq

ilmiy-nazariy xulosalardan Qoraqalpog‘iston radiokanalining “Poeziya minutlari”, “Tilga e‘tibor – elga e‘tibor” eshittirishlarini tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi teleradiokompaniyasining 2025-yil 23-yanvardagi 05-22/36-son ma‘lumotnomasi). Natijada, keng jamoatchilikni badiiy matnning estetik qiymati bilan tanishtirish orqali ko‘rsatuv va eshittirishlarning ma‘daniy-ma‘rifiy ahamiyatini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shundan 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma‘ruzalar shaklida tavsiya etilib, aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 17 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan respublika jurnallarida 8 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola e‘lon qilindi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 136 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Sh.Seytovning badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati**” deb nomlangan bo‘lib, unda badiiy so‘z vositalarining yozuvchi asarlarida mualliflik ishlatilishi bilan bog‘liq masalalar o‘rganilgan. Birinchi bobning “**Sh.Seytov – badiiy so‘z ustasi**” deb nomlangan birinchi faslida muallif va uning ijodining tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilinish holatlari tahlil qilingan. Yozuvchining ijodi va asarlari adabiyotshunos olimlar tomonidan anchagina tadqiqot qilindi. Ulardan Z.Bekbergenova yozuvchi asarlaridagi monolog va dialoglarni tahlil qilar ekan, bu haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Yozuvchining mahorati – har bir qahramonni o‘ziga hos xususiyati bilan gapirtira olishida, ayniqsa har kimning o‘z nutqini, o‘z ovozi o‘quvchiga tabiiy holda badiiy va ta’sirchan yetkazib berishida ko‘rinadi”⁸. Mazkur masalani J.Kaniyazova shunday ifodalaydi: “F.M.Dostoevskiy romanlaridagi kabi har bir personaj o‘z ovozigacha ega bo‘lib, ulardagi muallif va personaj nutqiga o‘xshashligi sezilmaydi. Qahramonlar boshidan oxirigacha o‘z mustaqil nutqiga egadir”⁹. Haqiqatdan ham, muallif nutqi bilan personaj nutqining yaxlitlashishi, polifonik nutq qirralari borligi bilan yuzaga chiqadi.

⁸ Бекбергенова З. Қарақалпақ романларында көркем сөз поэтикасы (1980–2010-жыллар). Монография. – Нөкис: Илим, 2016. – Б. 79.

⁹ Қаниязова Ж. Ш.Сейитов романларида характер яратиш маҳорати («Халқобод» роман-тетрологияси мисолида). Филол. фан. фалсафа доктори... дис. автореф. – Нукус, 2017. – Б.18.

Mazkur bobning **“Individual mualliflik metaforalar”** nomli ikkinchi faslida muallif tomonidan asarga kiritilgan metaforalar va ularning shakliy va ma’no xususiyatlari misollar tariqasida tahlilga tortilgan. Yozuvchi asarlaridagi metaforalar antropomorf, zoomorf, abiomorf, teomorf va kosmomorf singari bir nechta guruhlarga ajratilgan holda tahlil qilingan.

Metaforalarning yakka mualliflik qo‘llanishiga quyidagi misolni ko‘rsatish mumkin: *“Xalq dushpaniniń shapani”* h azir h ammege jarasa beredi (Xalqobod). Qoraqalpoq xalq urf-odatiga ko‘ra, hurmat va e‘tibor nishoni sifatida yoshi ulug‘ odamlarni e‘zozlash va taqdirlash uchun chopon yopiladi. Mana, shu o‘xshashlikni tafakkurona sezgan yozuvchi, ushbu mualliflik metafora orqali o‘zi tasvirlagan davrning achchiq haqiqatini ochib bergan.

“Xalqobod” romanida qoraqalpoq xalqining o‘tmishi bilan bog‘liq hikoyalarda metaforalar faol qo‘llanilgan: H amiwdiń ayađına kelgen bizler de sol kiyizdiń bir jullıđımız, – dey beretuđın edi atam paqır (Xalqobod). Yozuvchi asarda xalqning ko‘p yillar davomida bosqinchilik qurboni bo‘lganligi, qiynalganligi va oqibatida ajralish, bo‘linish holatlarini yuqoridagi ka‘bi metaforalarda tasvirlashi uning ijodiga xos uslub sanaladi. Yozuvchining mana shunday mualliflik metaforalarni yaratishda o‘ziga xos uslubi bor. U yaratgan metaforalarda qoraqalpoq xalqining o‘ziga xos xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘lib turadi.

Birinchi bobning uchinchi bo‘limi **“Individual mualliflik o‘xshatishlar”** deb nomlanadi.

Yozuvchi asarlaridagi erkin mualliflik o‘xshatishlari o‘zining etaloni va semantik tabiatiga ko‘ra bir nechta guruhlarga ajratilgan holda tahlil qilingan. Jumladan, qahramon xarakterini va xulq-atvorini turli narsa va predmetlarga o‘xshatish; qahramonning tashqi ko‘rinishi va xarakteridagi xususiyatlarni hayvonlar va qushlarga o‘xshatish; o‘simliklar, mevalar va sabzavotlar orqali obrazlar yaratish; inson xarakterini va ruhiy holatlarini tabiat hodisalariga qiyosiy tasvirlash asosida hosil qilingan o‘xshatishlar.

Yozuvchi asarlarida ishlatilgan bu o‘xshatishlar xalq og‘zaki ijodiga xosligi va xalq turmush-tarziga yaqinligi bilan alohida ahamiyatga ega. Masalan: *“Ilaydı jayđanda da muqıyatlap jaydı. Soń zikir salđan porxanday, oyıqqa basilđan ılaydıń  stinde ırđıy berdi. Buniń  zi, malaqayınıń bir qulađı qamıstıń sinđan japırađında mayısıp, bir qulađı tikireyip turatıđın adam edi. Selkildige shıdamay, malaqaydıń tikireyip turatıđın qulađı da jalpıdap, Shundiıdıń basında japalaq qanat qađıp atırđanđa usadı. “K n ne waqlar boldı eken?” dep shıđısqa qaradı. Qarasa, anaw shıđıp kiyatırđan quyashtıń shuđlasına sholasıp, tap bir, jalındı jarıp shıqqanday eki atlı shıđıp kiyatır. “Tamasha” dep tańlandı Shundiıy. – Tap bir quyashtı eńsesine qondırıp, awılđa  kiyatırđanday eken!..”* (Xalqobod). “Xalqobod” romanida Xudoybergan shundiyning jonli portretini yaratishda yozuvchi juda ko‘p marotaba o‘xshatishlarga murojaat qiladi. Yozuvchi uning bitta qulog‘i tikraygan, bir qulog‘i qamish yaprog‘i singari osilib turgan bosh kiyimini komik usulda tasvirlaydi. Yozuvchining o‘xshatishlar orqali qahramon portertni jonlantirishga, qahramon qiyofasining mayda detallarigacha chizib ko‘rsatishga ustaligi o‘quvchida qiziqish uyg‘otadi.

Shuningdek, yozuvchi asarlaridagi oʻxshatishlar qahramonlar kayfiyati, makon va zamon voqealigini oʻquvchining xuddi koʻz oldida harakatlanayotgandek jonli gavdalantirish, peyzaj va personaj tasvirini chizish imkonini beradi: Sol toʻlqinlar arasında birese oyga túsip, birese “jaʼgaga” shapshıp, sheten kóylek *qızıl tuwday* jelibirep ele ketip baratır, ketip baratır... (Qochqin).

Yozuvchi “Xalqobod” romanidagi Nazarbay obrazining salbiy tomonlarini koʻrsatishda, uning portretini oʻquvchi koʻz oʻngida jonli gavdalantirishda oʻxshatishlarning ajoyib usullaridan foydalangan: “...qolında puwı burqırağan bir tabaq gósh, Nazarbay baqırayıp tur, ya arı ketpeydi, ya beri júrmeydi. Nazekeń alqımında *qońız turıp qalğan tawıqtay* moyının sozıp, júresine otırıp atır edi. Shundiý betine bir úńildi de eńsesine tewip jiberdi. Tewgeni de sol, *qaraltımı saqaday* bawır, anaday jerge “tors” ete qoydı” (Xalqobod).

Birinchi bobning “**Yakka mualliflik epitelar**” nomli toʻrtinchi faslida Sh.Seytovga xos lingvistik mahoratni belgilashda asosan individual epitelarga murojaat qilingan. Individual epitelar “maʼlum bir ijodkor tomonidan ilgʻab olingan va badiiy asarda alohida koʻrsatishga boʻlgan ehtiyoj tufayli yuzaga chiqadi”¹⁰. Shuning uchun ham, epitelarda yozuvchining ham subyektiv, ham emotsional munosabatlari yaqqol koʻzga tashlanadi. Masalan: Altın otızlardan jańa asıp baratırğan *uzın boylı, arshın tós, omırawın aq quwday qaqaıtıp júretuǵın, ǵaybarlıǵın, qarıwlılıǵın múláyim kózler biykarlap turatuǵın súykimli ǵana* hayal edi (Xalqobod). Qızıl ala gúlli óreypek Aqjarqınnıń *jup-juqa, aq jarqın, qırmızı júzin* burınǵıdan da uwılıtıp jiberdi (Xalqobod).

Ayniqsa, yozuvchi asarlaridagi taqlid-epitelar voqea va qahramon harakatlarini jonlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi: Qulıpereńi shıǵıp, qara shirik aralasqan tinbanıń saz ılayın *tomp-tomp* shıńgıta berdi (Xalqobod). Jol-jónekey “waqım jerge” *zińkildep* baratırıp, úyrengen orısshaların barmaq búgıp sanay basladı (Xalqobod). Shundiý kempirin qorqıta alatıǵınday oqıyıp qarap turdıǵı, esikten shıǵıp, Bazardıń izine *tompıldap* eriw menen bola berdi (Xalqobod). Yozuvchi asarlaridagi taqlid epitelar juda koʻpchilikni tashkil qiladi va ularning asosiy vazifasi qahramon portretini jonlantirishga xizmat qiladi. Asarda Xudoybergan shundiý obrazining jonkuyarligi, odamlarga hamisha holis yordamga tayyorligi, oʻz ishiga talabchanligi mana shunday epitelarda nomoyon boʻladi.

Birinchi bobning beshinchi boʻlimi “**Metonimiya va sinekdoxalarning badiiy-estetik vazifalari**” deb nomalanadi.

Metonimiyalar ham badiiy asarda oʻz oʻrniga ega, ular ijodkor gʻoyasini, maqsadini yoritishda maʼlum darajada aktual vazifani bajaradi. Yozuvchining «Chiroqchilar» romanidagi jamiyatdagi eski va yangi hukumat odamlarini koʻk va qızıl metonimiyalari orqali ifodalashi va bu holat ushbu asardagi Esjan otaning nutqida qiziqarli tasvirlanishi kitobxonni oʻziga tortadi: “Men *kók* te bolmayman, *qızıl* da bolmayman, *aq* ta bolmayman, sonda maǵan heshkim tiymeydi” (Chiroqchilar). Asarda hayoti davomida shu maqsad bilan yashagan personajning

¹⁰ Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 125-146.

bir oqshomda o'z fikr va qadriyatlarining o'zgarishi, qahramonlik ko'rsatish holatlari yaqqol tasvirlangan.

Shuningdek, yozuvchi asarlarida insonga oid fizik va ruhiy xususiyatlar, kiyim-kechak nomlari, kasb-hunarga oid, ma'lum bir ijtimoiy guruh nomlari ham metonimiya sifatida ifodalangan: Awil basına bir *qızıl shápekten* qaramaydı, solardıń da qayda júrgenin bilmeysiz, láttepámler! (Xalqobod). Biziń oyaqtağı *jansız* berman minip ótti, sennen gúdiklenip, ıqlay beripti! (Chiroqchilar). Yozuvchi asarlaridagi metonimiya va sinekdoxalarning vazifalari asosan fikrni qisqa va lo'nda yetkazishdan, voqea va hodisalarni obrazli tasvirlashdan iborat.

Sinekdoxalar badiiy matnda qo'llanilganida murakkab gap tuzilishlarini, ortiqcha chiyralgan so'z va iboralarni oldini oladi, matn jumllariga soddalik, effektivlik baxsh etadi. Sh.Seytov sinekdoxaning mana shu imkoniyatlaridan asar tilini bezashda, uning badiiyatini ta'minlashda unumli foydalangan: *Señseñli, qilqalı, shapanlı jawırınlar* iyin tiresip, *jaltır bas, shay bas, melle bas, aq baslar* zamannıń áhmiyetli bir máselesin máslahatlasıp alıwǵa bas qosısıp atırǵan bir payıt edi (Xalqobod). Anaw júrgen *qara kózler, qumay kózler, qoy kózler, móldir ko'zler* endi bes-altı jıldan usı bir kúnlerdi háwes penen esler, bálkim. Mınaw hár jer, hár jerge shoǵırlanıp *qıltıysqan melle bas, buyra bas, taqır bas, qara shashlardı, kúnge qarawıtqan, ushı tershigen qus murın, baspaq murınlardı, tentek-qıńırların, sıpayı-dogalların saǵınıp esler, bálkim* (Taqdir so'qmoqlari).

Yozuvchi asarlarida inson tana a'zolariga oid sinekdoxalar juda ko'p ishlatilgan. Ular asar matnlarida nutqni tejash va muallif fikrini ekspressiv yetkazish vazifasini bajaradi: Bul waqıtta Qudaybergen shundiýdıń *sherim etikli ayaqları* Mádiyardıń úyine baratuǵın ayaq soqpaqta tımpıldap baratır edi» (Xalqobod). Yozuvchining portret chizishdagi mahorati uning "charm etikli oyoq" sinekdoxasi orqali ko'rinadi. Shuningdek, yozuvchining qahramonning oyoqlariga jon endirishi gapdagi "tımpıldap" (mayda qadam tashlab) taqlid-epitetining yordamida hosil bo'ladi va natijada ushbu sinekdoxa kuchli eksperssiv tus oladi. Bu sinekdoxa va epitetlar Xudoybergan shundiýning psixologiyasini ochib beradi, kolxoz ishi desa jonini fido qilishi, hamma narsadan o'z kommunistlik vazifasini birinchi o'ringa qo'yishi nomoyon bo'ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Sh.Seytov nasrining leksika-poetik xususiyatlari**" deb nomlangan. Sh.Seytov har bir leksik birlikdan hikoyalari tilining badiiyatini ta'minlashda o'ta sinchkovlik va mahorat bilan foydalangan. Chunki, oddiy xalq hayotining haqqoniy manzarasini chizish va tasvirlash – yozuvchi ijodining eng muhim hususiyatidir.

Ma'lumki, harqanday so'zning ma'no qirralari, qo'llanilish uslubi badiiy matn doirasida yozuvchi ideolektiga xos bo'lgan lingvopoetik maqsadlarni yuzaga chiqarish bilan nomoyon bo'ladi. Ikkinchi bobning ilk fasli "**Frazeologizmlarning individual-mualliflik qo'llanish xususiyatlari**" deb nomlanib, unda frazemalarning muallif tomonidan individual ishlatilishi va uning lingvopoetik tadqiqi yoritilgan. Ijodkorning til boyliklarini qayta ishlash mahorati haqida so'z borganda, muallif tomonidan yaratilgan individual frazeologizmlar bir qator misollar yordamida tahlil qilingan: Rayon túwe, soramındağı tılaqtay awıl, mına suwdır qaynaǵanıń óziniń *demine zaǵara pisedi* (Xalqobod). Demine nan pisiw

iborasi xalq tilida jamiyatda katta amaldorlarga nisbatan ishlatiladi, ushbu ibora tarkibidagi non bilan zog‘ora so‘zlarining almashib ishlatilishi, xalqning milliy o‘ziga xos mentaliteti va tarixiy turmush sharoiti bilan chambarchas bog‘liqdir. Sababi, u davrlarda oddiy xalq asosan non o‘rniga zog‘ora yegan, hozir esa u qoraqalpoq xalqining milliy taomi sirasiga kiradi va non o‘rnida juda kamdan-kam ishlatiladi. Muallif mana shu zamon va makon koloritini, xalqning turmush sharoitini hisobga olgan holda iboralarni o‘zgartirib, ularning estetik qiymatini oshirishga erishadi.

Joq! Qońısnıń *kúlin de dúbeley suwırıp ketipti!* (Xalqobod). *Kúlin kókke suwırıp* iborasining *kúlin dúbeley suwırıp ketti* shaklida ishlatilishi ifodani kuchaytirib, bo‘rttirib ko‘rsatishga yordam beradi. Olardı da kóp dilgir ete bermeń, taqatın tawısa berseńiz, *júrekke tas jıynaladı*, mehir jıynalmaydı (Xalqobod). Májilis ashıwǵa Sayımbet penen Qunnazar aqsaqal kelgende-aq, onıń bereketi qashıp, *ishinde mamaqaldıraq turıp edi* (Xalqobod). Keltirilgan misollardagi ka‘bi *yuragıga tosh yig‘ilish, ichida momoqoldiroq turish* frazemalarining xalq og‘zaki tiliga xos individual qo‘llanilish holatlarini juda ko‘p kuzatamiz.

Ikkinchi bobning **“Sinonimlarning lingvopoetik xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi faslida muallif o‘z fikrini aniq va tiniq tasvirlash, personajlar tilini individallashtirish maqsadida tilda bor bo‘lgan so‘zlarning ma‘nodash turlaridan juda unumli foydalangan: “Tam basına *jalaw* qıstırdıq”, dep edi, nárse biyxabar keywanı: – *Jalaw* qıstırıp, bul bir saqana ma! Házir alıp tasla, basqa laqabımız da az emes! – *Jalaw* jıqqan juwapqa tartıladı, hawwa!.. – *Ata, pılaq* qıstırıp siz, – Isimet keldi, izinde Gúlziyra. – Bir biyárman kelinshekseńdaǵı, Sozanay joldas, – dedi uyań. – Seniń túrmeńe shekem *tuw* bolıp tigilip atır! (Xalqobod). Ushbu parchadagi bayroq so‘ziga ma‘nodosh bo‘lgan *jalaw*, *pılaq*, *tuw* so‘zlarining uch qahramon tilida uch xil berilishi, matndagi so‘zlardagi tovushlarning uyg‘unligini ta‘minlab beradi va ushbu sinonimik qatorlar yozuvchining ma‘lum bir poetik maqsadini yuzaga oshirishda xizmat qilganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ular gapning emotsionalligini oshirish, estetik qiymatini orttirish va matnga o‘zgacha ohang, tovushlar uyg‘unligini hosil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli **“Antonimlarning lingvopoetik xususiyatlari”** deb nomlanadi.

Yozuvchining deyarli barcha romanlari keskin qarama-qarshiliklarga to‘la davrlarni tasvirlagan. Xususan, “Xalqobod”, “Chiroqchilar”, “Qochqin” asarlarida eski va yangi hukumat o‘rtasidagi kurash, haqiqat va nohaqlik, hokimiyat va din o‘rtasidagi nizolarni ko‘rsatib berishda antonim so‘zlardan lingvopoetik qurol sifatida foydalanilgan: *Dos pa, dushpan ba, qızıl ma, kók pe*, usı máhálde ǵarrıǵa bunıń túk parqı joq, tek mına apattan qutqarsa bolǵanı edi (Chiroqchilar). “Chiroqchilar” romanida qizil va ko‘k ranglari orqali qarama-qarshi hukumat vakillari tasvirlangan: “Musılmanlar mámleketi... Islam bayraǵına jeti iqlımınń káliymagóy bendelerin jámlep, umuwımıy musılmanlardıń balshoysız, orıssız húkúwmetin dúziw...” pikiri tiriyektiń iyisindey turnaǵına shekem jaylap ketken bunıń, – usı niyetine ólgeyliden sadıq, bul is ushın kisi túwe óziniń ólimin shıbın shelli kórmeytuǵın Izbasqannıń sırt pishimi *músápir, móhmin, ǵáripke* usaǵanı

menen adamga pitpegen *shaqqanliq, mergenlik, jawizligi bar, naqiz jurek jutqan jalmawiz edi*” (Xalqobod). Yozuvchining “Xalqobod” romani Izbosqonning mana shunday xarakteristikasi bilan boshlanadi. Uning tashqi ko‘rinishi musofir, mo‘min va g‘aribga o‘xshagani bilan, juda xavfli odam. Romanda bu so‘zlarga ma‘nosi zid bo‘lgan chaqqon, yovuz, mergan kontekstlik antonimlari yordamida Izbosqonning xarakteristik portreti yaratilgan.

Yozuvchining “Taqdir so‘qmoqlari” romanining asosiy g‘oyasi yaxshi kasb va yaxshi umr yo‘ldosh tanlashdan iborat. Buni quyidagi parchadan ko‘rish mumkin: Jaqsi at penen *jaqsi hayal*, jigittiñ baxiti. *Jamanina* dus bolsañ toppiñdi sattirip, to‘rkinine tartadi (Taqdir so‘qmoqlari). Bunda muallifning asosiy maqsadi yaxshi ayol bilan yomon ayol o‘rtasidagi farqni ko‘rsatishdan iborat.

Ikkinchi bobning “**Naql-maqollarning lingvopoetik xususiyatlari**” deb nomlangan to‘rtinchi faslida yozuvchi ijodiga va uslubiga xos naql-maqollar tadqiq va tahlil qilingan. Ayniqsa, “Xalqobod” romanida asosiy g‘oyasi kollektivlashtirish ruhiga xos bo‘lgan individual mualliflik iboralarni juda ko‘p uchratamiz: *Hukimet garqasa malin aladi, Quday garqasa janin aladi* (Xalqobod). “*Miñina shidağan birine de shidaydi*”, sen de “jüregim jaman” dep qapilta berme-dá, goshshim (Xavfli burilish). *Qatmiñ siylamasa, balañ gewishiñdi zihñitadi...* (Xalqobod).

Shuningdek, yozuvchi tomonidan bir qator naql-maqollarning tarkibidagi so‘zlarni almashtirish orqali ekspressivlik hosil bo‘ladi: “Birew tas penen ursa, sen mañlayina balta menen ur!” – degizedi bular (Xalqobod). Tilda bor bo‘lgan *Birew tas penen ursa, sen as penen ur* iborasi muallif tomonidan poetik maqsadni ko‘zlagan holda o‘zgartirib ishlatilgan.

Ikkinchi bobning “**Evfemizmlarning badiiy-estetik vazifalari**” deb nomlangan beshinchi faslida badiiy asar tilidagi evfemalar semantik guruhlariga ajratilgan holda tadqiq qilingan. Evfemizmlar xalqning turmush tarzi, milliy xarakterini, milliy koloritni ko‘rsatishda muhim ahamiyatga ega. Yozuvchi asarlarida o‘lim bilan bog‘liq bo‘lgan birqancha evfemalar ko‘zga tashlanadi: Ózim bir bolğanım menen shaqam miñ, hár shaqamniñ miñ tikenı bar, sonday bir tikenı kirse de sizdi *allaniñ názirine tip-tikke jónetedi*, sonı bilip qoygaysız! (Xalqobod). Nazarbaydıñ “*allaniñ aldına atlanajaq*” qıyalın esitiwden, bárin umıtıp... (Xalqobod). Endi biziñ menen *qıyamet mahsher kúinde kórisesiz*, ırza bolıñ! – dedi de eplep basıp, esikten shıgıp ketti (Xalqobod). Shuningdek, yozuvchi o‘z asarlarida oila qurish, uylanish, intim munosabatlarni, insonning ruhiy va jismoniy kamchiliklarini ifodalash uchun evfemizmlarga ko‘plab murojaat qilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ikkinchi bobning “**Varvarizmlar va vulgarizmlarning qo‘llanilishi**” deb nomlangan oltinchi faslida varvarizm va vulgarizm so‘zlarning qahramon xarakterini yaratishdagi o‘rni, zamon bilan xamnafas o‘sib borayotgan qahramon obrazini tipiklashtirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Romanda hukumatning faol a‘zosi Xudoybergan shundiy nutqida qoraqalpoqcha so‘zlar o‘zbek tiliga xos aktsent bilan, rus tildagi so‘zlar esa og‘zaki nutqqa moslashtirilib berilgan: – Al, endi házir *gramotniysañ...*(Xalqobod). – Iiyy, sóytkeniñiz jón-goy – jeñgey qamır mushlap otirip ayanişlı túrde maqulladı: – kelgen adam jónine keter deyseñ be? Akt-pakt dúzip ketip, ol *purkuralğa* ótip ketip júrse, shermendeshiligi...

(Xalqobod). Ha'zir qazıwdı ózi qazatúgın *eskibatır* degen kiyatır. Bir ózi júz beldardıń qazıwın qazadı, bizge sóydedi múgallım. – Pah, atın da tawıp qoyǵan eken-á, «*eski batır*» dáw shıǵar... (Xalqobod). Sh.Seytov asarlarida varvarizmlar qahramon xarakteriga xos jihatni yoritish barobarida ko'proq yumoristik pafos uchun xizmat qilgan. Shuningdek, asarda qozoq, tojik va o'zbek tilidagi so'zlar ham qahramonning individual jihatlarini ochib berishda, mahalliy koloritni jonlantirishda unumli qo'llanilgan. Qahramonlar nutqida ishlatilgan varvarizmlar "Xalqabad" romanidagi Shotan, Esirkep, Suluvshash, Xudoybergan shundiy obrazlarining bir qismiga aylangan: "Oy-bay-aw, minaw *bir nehe tipti tátti* eken goy, *osini* bilmey ne'gip ashırqadiq-ay Shotan, saǵan aytam!" dep atır Esirkebi. – Jaq, jaq, maǵan onday paltay-shaltayın ótpeydi, *kórshi*... (Xalqobod).

